

BADIIY MATN ASOSIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI OSHIRISH USULLARI

F. Shukurova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiya haqida tushuncha va ba'zi olimlarning kommunikativ kompetensiya haqida fikrlari, shuningdek, badiiy matn(hikoyalar)asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari hamda usullariga bag'ishlangan bo'lib, badiiy hikoyalar asosida bajariladigan bir nechta mashqlarni ham o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, kommunikativlik, muloqot, badiiy hikoyalar, leksik kompetensiya, tanqidiy fikrlash.

doi: <https://doi.org/10.2024/wp2j9y85>

Hozirgi zamonning yoshlarga qo'yayotgan eng dolzarb talablaridan biri bu tillarni o'rganish hamda ular orqali muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi. Ingliz tili esa til o'rganuvchilar orasida eng keng tarqalgan til hisoblanadi. Bundan tashqari yurtimizda xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro aloqalar yildan yilga yaxshilanib bormoqda bu esa o'z o'zidan xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniyatlararo munosabatlarning rivojlanishiga ham olib keladi, shunday ekan, xorijiy tilni faqat o'rganibgina qolmay, uni har sohada mohirlik bilan qo'llash, muloqot qilish muhim hisoblanadi.

Mamlakatlar va ularning xalqlari o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi tillarni o'rganishga kommunikativ yondashuv usulini asosiy o'ringa olib chiqdi. Negaki, aynan ushbu yondashuv usulidan foydalanib xorijiy tillarni o'qitilganda turli madaniyat vakillarining o'zaro muloqoti va hamkorligini qamrab olish mumkin. Ushbu nuqtayi nazarda, til o'rganish maqsadi va mazmuni ham o'zgaradi ya'ni til o'rganishdan maqsad uni o'rganibgina qolmay balki asosiy o'rinda muloqot qilish turadi.

Chet tilini o'qitish uchun material tanlayotganda tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarini ham qamrab oladigan manbaa tanlash talabalarning kommunikativ bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

“Kommunikativ kompetensiya” tushunchasi inglizcha “communication” “muloqot qilish” hamda “kompetensiya” esa A.V. Xuturovskiyning fikricha, predmet va jarayonlarning ma'lum doirasiga nisbatan shakllanuvchi shaxsning o'zaro bog'liq bo'lgan sifatleri (bilimlar, qobiliyatlar, malaka va ko'nikmalar, faoliyat usullari) majmuasi bo'lib, ularga nisbatan sifatli va samarali ta'sir ko'rsatish demakdir [2]. Kommunikativ kompetensiya bu muloqot jarayonida lingvistik (shu jumladan sotsiolingvistik) vositalarni qabul qilish va uzatish kabi jarayonlardan iborat bo'lgan murakkab tushunchadir. Bundan tashqari u mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy hayot, etiket, xulq-atvor, dunyoqarash kabi tushunchalar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayoni birinchi navbatda o'rganilayotgan tilning leksik vositalarni o'zlashtirishga asoslanadi. Ushbu maqsadga erishishning eng maqbul usullaridan biri bu adiblar badiiy hikoyalarining original matnidan foydalanishdir.

¹ Shukurova Farida Xayrilla qizi, SamDCHTI tayanch doktoranti

Masalan, mohir hikoyanavis adib Somerset Moemning “Chumoli va chigirtka” (“The Ant and the Grasshopper”) hikoyasini oladigan bo’lsak. Ushbu hikoya asosida talabalar bilan birgalikda ularning kommunikativ kompetensiyasini oshiruvchi bir qancha mashg’ulotlar o’tkazish mumkin. Ushbu mashg’ulotlar 8 akademik soatga mo’ljallangan bo’lib, hikoya asosida maxsus qo’llanma yaratiladi, qo’llanmaning har bir darsi original matndan, notanish so’zlar va iboralar ro’yxatidan, leksik mashqlardan va muhokama qilish uchun vaziyatlardan iborat bo’ladi. Ushbu mashg’ulotlar til bilish darajasi (CEFR) B2 va undan yuqori bo’lgan talabalarga mo’ljallangan bo’lib, unda birinchi navbatda talabalarining muloqot qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Har bir dars talabalarining so’z boyligini kengaytirishga va bundan tashqari berilgan vaziyatlarda o’rganilayotgan chet tilida erkin muloqot qilish ko’nikmalarini egallashga qaratilgan bo’ladi.

Adibning ushbu hikoyasi o’zining leksik rang barangligi va hikoya ichiga joylashtirilgan masal ko’rinishidagi noodatiy syujeti bilan ham talabalarining hayratiga va adabiy bilimlarini oshishiga sabab bo’lishi mumkin. Hikoyadagi jonli dialoglar talabalarining so’zlashuv leksikasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun hikoya asosida quyidagi mashqlarni bajarish mumkin:

Birinchi mashqda original matndan ma’lum bir so’zlar tanlab olinadi talabalar esa ushbu so’zlarning ta’rif (description)ini aytib berishlari kerak.

Ikkinchi mashqda ham talabalarining leksikasini boyitish jarayoni davom etadi ya’ni bunda talabalar hikoyadan tanlab olingan so’zlar asosida so’z birikmalari tuzishlari kerak.

Uchinchi mashq orqali talabalarga hikoya asosidagi lug’atning so’zlariga ma’nodoshlar topish vazifa qilib beriladi. Bu orqali talabalar so’zlarning stilistik bo’yoqdorligini farqlash, ularni to’g’ri o’rinlarda qo’llay olish ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

To’rtinchi mashq hikoyani qisqacha xulosalash. Ushbu mashq orqali talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim hisoblangan analiz qilish, tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarni takomillashtirish mumkin.

Beshinchi, ushbu hikoya syujeti asos qilib olinib talabalar o’zlarining yangi hikoya versiyalarini yaratishadi. Bu mashq orqali talabalar ega bo’lgan kommunikativ bilimlarini kreativ usulda aktivlashtirishadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, badiiy matn asosida talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ularning leksik salohiyatini oshiradi balki, analitik, kognitiv, tanqidiy fikrlash, kreativlik qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

[1]. W. Somerset Maugham. *The complete short stories of W. Somerset Maugham*. Vol.1. Heinemann. London.1951. P. 95-99.

[2]. Троинцкая Ю.В. Коммуникативная компетенция: демаркация значения // Известия Волгоградского государственного педагогического университета ю 2020. №7 (150). С.112-119.

[3]. Яркова Л.Г. Лингвострановедческий материал в подготовке будущих учителей иностранного языка // Особенности современного языкового образования и проблемы его совершенствование. Материалы областной научно-практической конференции. – Орехово-Зуево: МГОПИ, 2004. – С 201-205.